

Ellipsis va substitutsiya hodisasining turlari

Poshshajon Usmon qizi Abdullayeva
Ma'mun universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ellipsis va substitutsiya hodisalarining turlari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. Shuningdek ularni kontekstda ishlatilishi qanday qilib matnda farqlanishi mumkinligi namunalar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nominal ellipsis, predikativ va jumla ellipsislar, substitutsiya, nominal almashtirish, predikativ va jumla substitutsiyasi

Types of ellipsis and substitution phenomenon

Poshshajon Usman kizi Abdullayeva
Mamun University

Abstract: This article provides information about the types of ellipsis and substitution. Also, their use in the context, how they can be differentiated in the text is explained through examples.

Keywords: nominal ellipsis, verbal and clausal ellipsis, substitution, nominal substitution, verbal and clausal substitution

Ingliz tilshunosligida ellipsis hodisasining bir nechta turlari mavjud bo'lib, ularning farqlari quyida keltirib o'tiladi. Dastlabki tur bog'langan ellipsis turi hisoblanadi va ellipsisning bu ko'rinishi ingliz funktsional grammatikasining yetuk mutaxassisi Hallidey tomonidan chuqur o'rganilgan. U ellipsis hodisasini uch asosiy turga - nominal, predikativ va jumla ellipsislariga ajratadi.

Nominal ellipsis dastlab o'rganilgan ellipsis turi bo'lib, bunda nominal guruhdagi so'zlar, asosan otlar ushbu hodisaga uchraydi, uning vazifasi nominal ellipsis tarkibidagi asosiy vazifasi ko'rsatkich va old izohlovchi bo'lgan vositalar orqali belgilanadi. Atoqli otlar nominal ellipsisga uchramaydi, chunki ular shaxs nomlarini ko'rsatadi, shuning uchun ham boshqa qo'shimcha izohga ega bo'lmaydi¹. Bunga qo'shimcha tarzda, Hallidey kishilik olmoshlari keltirilayotgan gapdan tashqari ma'lumotga ishora qilgani uchun ham ularni tahlil qilmaydi. Atoqli otlar va olmoshlar ellipsisga aloqador bo'la olmaydi, sababi ular izohlovchi vazifasida foydalanilmaydi. Shu sababli ham nominal ellipsisga uchragan gaplarning egasi turdosh otlardir. Turdosh otlar nominal ellipsisga uchrashiga sabab shundaki, ular atoqli otlardan farq

¹ Halliday, M.A.K. and Hasan, R. Cohesion in English. London: Longman, 1976, - P.147

qilib, turkumlarni bildiradi va ular ko'pincha yanada mukammallashtirilib, bu funktsiyani esa deytik, numerativ, epitet va tasniflovchi vositalar bilan yanada samarali qilishi mumkin. Buni quyidagi namunalarda ko'rishimiz mumkin:

E.g. Have another chocolate. - No thanks; that was my third(chocolate). - Ushbu gapda miqdorni anglatuvchi so'zlar izohlovchi vazifasida kelib, bosh bo'lakning darajasini aniqlab ko'rsatgan.

E.g. Which last longer, the curved rods or the straight rods? - The straight (rods) are less likely to break - Bu gapda esa epitet bosh bo'lakni ifodalab kelgan. Yuqorida keltirilgan misollarda *my third* va *straight* so'zlari elliptik nominal guruhdagi so'zlardir.

Elliptik nominal guruhning xususiyatlaridan biri uni to'ldirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni talab qiladi. Shunday qilib, elliptik nominal guruhni har doim uning to'liq yoki elliptik bo'lmagan ekvivalenti bilan almashtirish mumkin.

Keyingi keng tarqalgan ellipsis hodisasi turlaridan biri predikativ ellipsisdir. Bu mashhur tilshunos Hallidey tomonidan tahlil qilingan ellipsisning ikkinchi turi bo'lib, u predikativ guruhi ichidagi ellipsis hodisasini o'rganadi. Hallideyning fikriga ko'ra, fe'lli ellipsis og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'iy nazar barcha turdagi matnlarda turli xil ma'no nozikliklariga ega bo'lgan diskurs yaratish uchun foydalaniladigan moslashuvchan vositadir². Tilshunos Hallidey predikativ ellipsisning nominal turidan farqi faqatgina bitta leksik element ya'ni fe'lning o'zi mavjudligi deb ta'kidlaydi. Qolgan barcha predikativ guruh har doim predikativ guruhda amalga oshirilishi kerak. Predikativ ellipsis turini faqatgina tilshunos Hallidey emas, balki boshqa olimlar Makkarti va Tomaslar ham tahlil qilishgan. Ular predikativ ellipsisning eng ko'p tarqalgan 2 ta turini tanishtiradi: Bu *takrorlanuvchi ellipsis (echoing ellipsis)* va *yordamchi kontrastli ellipsis(auxiliary contrasting ellipsis)*. Birinchi turi predikativ guruhdagi elementning takrorlanishidir, buni quyidagi gap yordamida tushunish mumkin:

E.g. Will anyone be waiting? - Jim will. I should think. bu yerda *will* yordamchi fe'li birinchi gapdan saqlanib qolgan.

Keyingi tur tahlil qilinganda, uning nomidan ham ma'lumki unga elliptik gapdagi yordamchi fe'l birinchi gapdan farq qiladigan holatlar kiradi. Uni quyidagi misol yordamida osongina farqlash mumkin:

E.g. - Has she married? -No, but she will one day. I'm sure - Ushbu gapda yordamchi fe'l *has* ning o'rnida boshqa bir yordamchi fe'l *will* dan foydalanilgan.

Jumla ellipsisi tamomila nominal yoki predikativ ellipsis turlarini o'z ichiga olmaydigan elementlarning tushib qolishi bo'lib, eng keng tarqalgan bo'laklar ya'ni qo'shimchalar va to'ldiruvchilar jumla ellipsisi orqali namoyon bo'lishi buyuk

² Halliday, M.A.K. and Hasan, R. Cohesion in English. London: Longman,1976, - P.194

tilshunos Hallidey tomonidan qayd etilgan³. Jumla ellipsisining modal va propozitsional ko‘rinishlari mavjud. Bunday bo‘linishga Hallideyning fikri asos bo‘ladi va unga ko‘ra ingliz tilida gap asosiy 2 ta qismga, ya‘ni modal va propozitsionalga ajraladi. Birinchi qismi ega va harakat fe‘lidan iborat, ammo shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, harakat fe‘li mavjud bo‘lishi shart emas. Keyingisi propozitsional qism bo‘lib, u leksik fe‘l, uning tarkibi va to‘ldiruvchilarni o‘z ichiga oladi. Kamida ikkita jumla tuzilishi jihatidan bevosita bog‘langan bo‘lsa, jumla ellipsisi hosil bo‘ladi, ular gap komplekslari deb ataladi. Quyida jumla ellipsisga bir nechta namunalar keltirib o‘tilgan:

1. *What was the Duke going to do? - Plant a row of poplars in the park.*
2. *Who was going to plant a row of poplars in the park? - The Duke was.*

Substitutsiya hodisasining turlarini farqlaydigan bo‘lsak, o‘rin almashish grammatik munosabat bo‘lganligi sababli, so‘z birikmalarida emas, balki ma‘noda bo‘lgan munosabat ekanligi tufayli o‘rin almashishning har xil turlari semantik jihatdan emas, balki grammatik jihatdan aniqlanadi. Ingliz tilida o‘rinbosar ot, fe‘l, gap vazifasini bajarishi mumkin. Ularga mos ravishda almashtirishning uchta turi mavjud:

1. Nominal substitutsiya
2. Predikativ substitutsiya
3. Jumla substitutsiyasi

Nominal substitutsiya ot yoki o‘tli so‘z birikmasini nominal o‘rin bosuvchi so‘z bilan almashtirishni anglatadi, ingliz tilidagi *one/ ones, the same* so‘zlarini namuna sifatida aytish mumkin. Nominal almashtirish nominal guruhda bosh so‘z yoki butun nominal guruhni taxmin qilish vazifasini bajaradi. Buni quyidagi namunalarda ko‘rishimiz mumkin:

1. *Have you any knives? I need a sharp one.*

2. *He studied the whole text last night. I did the same.* Ushbu namunalarda *one* so‘zi *knives* so‘zi o‘rnida bosh so‘z bajarsa, *the whole text last night* birikmasi *same* so‘zi bilan ifodalangan.

Nominal almashtirish quyidagi usullarda o‘rganiladi:

1. Nominal substitutsiya “one/ ones” - Substitutsiya birligi har doim nominal guruhning bosh bo‘lagi vazifasini bajaradi va faqat o‘zi nominal guruhning asosiy bo‘lagi bo‘lgan elementni almashtirishi mumkin. Buni quyidagi namunada ko‘rish mumkin: *Cherry ripe, cherry ripe, ripe I cry, Full and fair ones, come and buy.* - Ushbu misolda *ones* so‘zi “*Full and fair ones*” so‘zlari uchun bosh bo‘lak vazifasini bajargan.

2. Nominal substitutsiya “same” - Substitutsiya *same* odatda *the* aniq artikli bilan keladi. Faqat o‘tli bosh bo‘lak qilib oluvchi *one* so‘zi dan farqli o‘laroq, *the same* so‘zi butun nominal guruhni o‘z ichiga oladigan, jumladan, har qanday o‘zgartiruvchi elementlarni bildiradi. Buni quyidagi na‘munalardan anglash mumkin:

³ Halliday, M.A.K. and Hasan, R. Cohesion in English. London: Longman, 1976, - p.197

I'll have two poached eggs on toast, please. I'll do the same.

Substitutsiya *the same* quyidagi holatlarda qo'llanilishi mumkin:

- Bir xillikni ya'ni o'xshashlikni ifodalaganda *the same* dan foydalaniladi:
- Fakt ishtirok etayotgan jarayon muhitida ko'pincha fakt o'rnini bosishi mumkin.

Ushbu holat quyida namunalar yordamida keltirilgan:

John thought it was impossible. Yes, I thought the same.

Do the same- Ikkinchidan, bir xil ot o'rnini bosuvchi ko'pincha *do* fe'li bilan qo'shib, ayrim turdagi ergash gaplarda jarayon o'rnini bosadi. Buni quyidagi misollardan tushunish mumkin:

They all started shouting, so I did the same.

Be the same- *The same* shakli aniqlovchili gaplarda aniqlovchi sifatida yuzaga keladi, bu yerda u ot yoki sifatdoshni, ya'ni bosh bo'lak vazifasida ot yoki sifatdoshga ega bo'lgan ot so'z birikmasini almashtira oladi. Buni quyidagi namunada ko'rish mumkin:

Charles is now an actor. Given half a chance I would have been the same.

3. Nominal substitutsiya olmoshlar bilan ifodalanishi

Kishilik olmoshlari (*I, me, you, him, it, they*). Kishilik olmoshlari otli so'z birikmalari o'rnida ishlatiladi, odatda odamlar va oldin eslatib o'tilgan narsalarga ishora qiladi. Egallik olmoshlari (*mine, yours*) ham xuddi shunday qo'llanadi. Masalan: *I can speak Japanese quite well. I have been learning it for several years. To ensure that our sales staff speak to customers in an appropriate way, management has made the decision to send them on a training course next week - Men yapon tilini yaxshi bilaman. Men buni bir necha yildan beri o'rganyapman. Sotuvchilarimiz mijozlar bilan to'g'ri gaplashayotganiga ishonch hosil qilish uchun rahbariyat ularni keyingi haftada o'quv kurslariga yuborishga qaror qildi.*- Ushbu jumlada *sotuvchilarimiz* so'zi ularni olmoshi bilan ifodalangan.

Substitutsiyaning ko'p uchraydigan turlaridan yana biri bu predikativ substitutsiyadir. Ingliz tilidagi ushbu tur "*do*" fe'li bilan ifodalanadi. Bu leksik fe'l egallagan o'rinda fe'l guruhida bosh bo'lak vazifasini bajaradi va uning o'rni har doim gap oxirida bo'ladi. Buni quyidagi namunalardan aniqlashtirish mumkin:

1. *...the words did not come the same as they used to do.*

2. *'I don't know the meaning of half those long words, and, what's more, I don't believe you do either!'*

Ushbu namunalarda 1-gapda qo'llanilgan *do* fe'li *come* fe'lining ma'nosini ifodalash uchun; 2-gapdagi *do* fe'li esa *know the meaning of half those long words* birliklarining o'rnida foydalanilgan. Birinchi va ikkinchi namunalarda nazarda tutilgan elementlar gapda bir xildir, shuning uchun almashtirishning o'zi uzviy emasdir. Ammo predikativ almashtirish muntazam ravishda jumla chegarasidan tashqariga chiqadi.

“Do” substitutsiyasi, “do” fe’lidan funktsional darajada farqlanadi, bunda “do” leksik fe’l, umumiy fe’l va harakat fe’li vazifasini bajaradi.

Do fe’li bilan bog‘liq so‘zlar to‘plamini quyidagi parchada tasvirlash mumkin:

What’s John doing these days?

1. *John’s doing a full-time job at the works.* 2. *That’ll do him good.*

3. *I’m glad he’s doing something.* 4. *He likes it more than I would ever do.*

Ushbu namunada 1) *do* lug‘aviy fe’li, 2) umumiy fe’l, 3) harakat fe’li, 4) substitutsiya.

Jumla substitutsiyasi almashtirishning yana bir turi bo‘lib, unda gap ichidagi bir element emas, balki butun gap ko‘rib chiqiladi. “So” va “no” so‘zlari bo‘lak o‘rnini bosuvchi vositalar sifatida ishlatiladi. Bo‘lak o‘rnini bosishda butun gap nazarda tutiladi, qarama-qarshi element esa gapdan tashqarida bo‘ladi. Buni quyidagi namunada ko‘rish mumkin:

Is there going to be an earthquake? / It says so. - Bu yerda “so” so‘zi butun gapni anglatadi, zilzila bo‘ladi va qarama-qarshi muhit uning tashqarisidagi “says”(deydi) bilan ifodalanadi.

Bo‘lak o‘rnini bosishda sodir bo‘ladigan uchta muhit mavjud: *xabar, shart* va *modallik*. Bu muhitlarning har birida u ikki shakldan birini olishi mumkin: ijobiy yoki salbiy; ijobiy “so”, salbiy “no” so‘zlari orqali ifodalanadi.

Jumla substitutsiyasi almashtirilgan elementning bosh bo‘lagidan ko‘proq kengaytirilishi mumkin va u butun bir gapning presuppozitsiyasini o‘z ichiga oladi. *So* va *not* o‘rin bosuvchi vositalar sifatida jumla substitutsiyasida butun bir gap o‘rnini bosish uchun foydalaniladi. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

Are you coming to dinner? I think so.

Did he leave on time? I think not.

1-gapda *so men tushlik qilmoqchiman* degan ma’noni anglatadi; 2-namunada *not* u o‘z vaqtida ketmaganligini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Buyuk ingliz grammatik olimlari Hallidey va Hasan gap almashuvi sodir bo‘ladigan uchta muhitni tasvirlaydi⁴. Bular o‘zlashtirma gaplar, shart ergash gaplar, va modallik.

1. *Mary thinks that there is another planet beyond Pluto. But no one else thinks so*

2. *Would the girls miss the package she had put down? If so, would she remember that Erica had been close by?*⁵

3. *“I dare say you never even spoke to Time!” “Perhaps not.”*⁶

⁴ Halliday, M. A. K. and Hasan, R. 1976. Cohesion in English. London: Longman, 1976, -P.178

⁵ Hailey, A. Wheels. New York: Doubleday & Company, Ltd, 1971, - P.120

⁶ Halliday, M. A. K. An introduction to functional grammar. London: Edward Arnold, 1985, - P.297

Bo‘lak o‘rnini bosishga imkon beruvchi bu uchta kontekst ham semantik jihatdan bog‘liq. Ular bayonotning haqiqati savolga ochiq bo‘lishi uchun muhit yaratadi. Halliday va Hasan aytganidek, “bular uchulasi voqelikdan (bayonotlardan) uzoq bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lib, ular taxminiydir”. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shart gaplar, modallik va o‘zlashtirma gaplar - bu tahlil qilinayotgan matnda bo‘lak almashinuvi sodir bo‘ladigan asosiy holatlar va qarama-qarshi element bo‘lakdan tashqarida bo‘ladi. O‘rnini bosuvchi elementlar berilganlarning ko‘rinishi sifatida taqdim etilib, matnning semantik tuzilishi unda ma’lumot tashkil etilishini buzmasdan hissa qo‘shadi.

References

1. Halliday, M.A.K. and Hasan, R. Cohesion in English. London: Longman,1976, P.147
2. Halliday, M.A.K. and Hasan, R. Cohesion in English. London: Longman,1976, - P.194
3. Halliday, M.A.K. and Hasan, R. Cohesion in English. London: Longman,1976, - p.197
4. Halliday, M. A. K. and Hasan, R. 1976. Cohesion in English. London: Longman,1976, -P.178
5. Hailey, A. Wheels. New York: Doubleday & Company, Ltd,1971, - P.120
6. Halliday, M. A. K. An introduction to functional grammar. London: Edward Arnold,1985, - P.297
7. Halliday, Introduction to Functional Grammar: 4th edition, Birmingham, 2014.
8. Akmajian A. Demers R. Farmer A. Harnish R. Linguistics: An Introduction to Language and Communication, 4th ed. Cambridge: the MIT press, 1995. - P.371.